



Volume: 35 / 2023

Economy and Innovation

ISSN: 2545-0573

For more information contact : editor@gospodarkainnowacje.pl

GOSPODARKA I



DAVLAT BUDJETIDAN AJRATILADIGAN SUBSIDİYALARNI MAQSADLI YO'NALTIRISH MASALALARI

Djumaniyazov Ikram Karimbayevich

"Mikrokreditbank" ATB Boshqaruv raisi o'rinbosari

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: Davlat budjeti, konsolidatsiyalashgan budjet, budjetdan tashqari jamg'arma, moliyaviy resurslar, transfert, subsidiya.

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan budjet tarkibida budjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalarining, ya'ni subsidiyalarning tutgan o'rni, vazifalari, ularni to'g'ri yo'naltirish, moliyaviy resurslarini shakllantirish hamda samaradorlikni oshirish yo'llari tadqiq qilingan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Kirish

O'zbekistonda Respublikasida budjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalari faoliyatini takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mablag'lari soliqlar, majburiy to'lovlar va jarimalar, homiylik mablag'lari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan belgilangan boshqa daromadlardan, shuningdek budjet transfertlari va subsidiyalaridan shakllantiriladigan davlat maqsadli jamg'armalari davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun tashkil etiladi¹. Respublikamizda olib boriladigan islohotlar, ayniqsa ishsizlikni va kambag'allikni kamaytirish, aholini davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armalari faoliyati bilan bevosita bog'liq. Shu nuqtai nazardan davlat maqsadli jamg'armalar mablag'larini shakllantirish va ularda samarali foydalanish bugungi kunda o'ta dolzarb masalalardan biri hisoblanib kelmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Respublika byudjeti xarajatlari g'azna ijrosi yagona g'azna hisobvaraq yoki G'aznachilikning boshqa bank hisobvaraqlaridan belgilangan muddatlarda va tegishincha Respublikasi byudjeti hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqarimablag'larining qoldiqlari doirasida amalga oshiriladi.

Davlatning jamiyat hayotida muhim vazifalarni bajarishi uchun ma'lum miqdorda xarajat qilish talab etiladi. Bu xarajatlar davlatning maxalliy byudjetlari yoki respublika byudjeti orqali amalga oshiriladi. Davlat xarajatlari - bu davlat ixtiyoridagi moliya resurslarini davlat faoliyati bilan bog'liq

¹ O'zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 2013 yil 26 dekabrda O'RQ-360-son Qonuni bilan tasdiqlangan. 36-modda.

ehtiyojlarni qondirish uchun qilingan sarflar yig'indisidir.

Budjet tizimi byudjetlarining iqtisodiy belgilar bo'yicha xarajatlari quyidagi xarajatlar guruhlarini o'z ichiga oladi:

birinchi guruh — ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar, kompensatsiya to'lovlari va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam;

ikkinchi guruh — ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar;

uchinchi guruh — kapital qo'yilmalar (Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan aniq yo'naltirilgan ro'yxatlarga muvofiq);

to'rtinchi guruh — boshqa xarajatlar.


Xarajatlar guruhlari bo'yicha aniq moddalar byudjet tasnifiga muvofiq belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil

Davlat byudjetining xarajat qismi tarkibida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg'armalari hisobga olinadi.

Davlat byudjetining xarajat qismi quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- iqtisodiyot xarajatlari;
- markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlab turish xarajatlari;
- sudlarni, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;
- boshqa xarajatlar.



1-rasm. Budjet xarajatlarini (konkret maqsadlarga mo'ljallanganligi bo'yicha)

turkumlanishi

Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari turli xil ajratmalar, majburiy to'lovlar, yig'imlar va homiylik mablag'lari hisobiga shakllanadi. Ushbu mablag'lar davlat maqsadli jamg'armalarga yuklangan vazifalarni mablag' bilan ta'minlashga yo'naltiriladi. So'ngi yillarda davlat maqsadli jamg'armalarning mablag'larini shakllantirishda davlat budjeti transfertlari ulushi oshib bormoqda.

Natijalar

2019-2022 yillarda konsolidatsiyalashgan budjetdagi budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar ulushini tahlil qiladigan bo'lsak 2019 yilda konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari 146,7 trln. so'm bo'lsa, shundan maqsadli jamg'armalari Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi bilan birga budjeti daromadi 34,5 trln. so'm yoki konsolidatsiyalashgan budjetning 23,5 foizini tashkil etgan. 2022 yilda esa konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari 178,7 trln. so'm bo'lsa, shundan maqsadli jamg'armalari Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi bilan birga budjeti daromadi 31,4 trln. so'm yoki konsolidatsiyalashgan budjetning 17,6 foizini tashkil etgan².

2019 yil konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari 159,8 trln. so'm bo'lsa, shundan maqsadli jamg'armalar Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi bilan birga budjeti xarajatlari 42,3 trln. so'm yoki konsolidatsiyalashgan budjetning 26,4 foizini tashkil etmoqda. 2022 yilda esa konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari 216,2 trln. so'm bo'lsa, shundan davlat maqsadli jamg'armalar Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi bilan birga xarajatlari 54,1 trln. so'mni yoki konsolidatsiyalashgan budjetning 25,0 foizini tashkil etmoqda.

1-jadval

2019-2022 yillarda O'zbekiston Respublikasi Konsolidatsiyalashgan budjetda davlat maqsadli jamg'armalari parametrlari

trln so'm

T/r	Ko'rsatkichlar	2019 yil	2022 yil
I.	Konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari	146,7	178,7
1.	Davlat budjeti daromadlari	112,2	147,2
2.	Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari	24,9	26,1
3.	O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga tushumlar	9,6	5,3
II.	Konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari	159,8	216,2
1.	Davlat budjeti xarajatlari *	117,6	149,9
2.	Davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlari	26,9	40,7
3.	O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larining sarflanishi	15,4	13,4

² Fuqarolar uchun budjet. 2022 loyiha / O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.-Toshkent: BAKTRIAPRESS, 2022. - 64 b.

4.	Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar	-	12,1
III.	Davlat maqsadli jamg'armalariga transfertlar	0,4	15,9

Davlat maqsadli jamg'armalarning nafaqat konsolidatsiyalashgan budjet tarkibidagi ulushi kattaligi, bundan mamlakatimiz ijtimoiy iqtisodiy yo'nalishi hamda aholiga yaratiluvchi imkoniyatlarda maqsadli jamg'armalarning ahamiyati katta ekanligini anglash mumkin. Natijada 2019 yilda 0,4 trln. so'm, 2020 yilda 9,2 trln. so'm va 2022 yilda 15,9 trln. so'm yoki maqsadli jamg'armalarning xarajatlari 2019 yilda 0,9 foizi, 2020 yilda 22,7 foizi va 2022 yilda 29,3 foizi davlat budjetidan transfertlar sifatida qoplab berilmoqda. Bu ko'rsatkich 2022 yilda 2019 yilga nisbatan 28 punktga oshganliginiko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga tushumlar konsolidatsiyalashgan budjet daromadlaridagi salmog'i 2019 yilda 6,54 foizni, konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlaridagi salmog'i esa 9,6 foizni tashkil qilgan. 2022 yilda esa daromatlari daromatlari salmog'i 2,9 foizni, xarajatlari salmog'i esa esa 7,5 foizni tashkil qilmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi daromatlari salmog'i avvalgi yillarga nisbatan kamaygan.

Xulosa va munozara

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, davlat budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar va Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi maqsadli harakterga ega jamg'arma hisoblanib, umumdavlat yoki mahalliy ahamiyatga ega maqsadli tadbirlarni moliyalashtirish uchun moliyaviy resurslardan foydalanish vositasi hisoblanadi. Shuning uchun ushbu budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar resurslaridan maqsadli va samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 2013yil 26 dekabrda O'RQ-360-son Qonuni bilan tasdiqlangan.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 25 dekabrda "2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-657-son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 29 dekabr 2020 yil.
4. Полешук Т.А.Б, Митина О.В. Бухгалтерский учет в бюджетных организациях.
5. Nurmuxamedova B.I. Davlat budjeti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISODMOLIYA", 2018. – 576 b.
6. Mehmonov S.U. "Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metadalogiyasini takomillashtirish" i.f.d. diss. Avtoref. 76.b.-T., 2018
7. O'zbekiston Respublikasining "2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni loyihasi
8. Fuqarolar uchun budjet. 2021 loyiha / O'zbekiston Respublikasi Moliyavazirligi.-Toshkent: BAKTRIA PRESS, 2021. -64 b.
9. Hisob palatasining O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalar budjetlarining 2021 yildagi ijrosi to'g'risidagi hisoboti.
10. Рашидов, Д. (2023). Давлат-хусусий шерикликда таваккалчилик турлари. *Scienceweb academic papers collection*.